



Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-dekabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 13 648,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 117,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,692 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 15,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 18,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni

konditsiyalash sanoatida 0,9 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 25,0 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,018 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13 196,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,692 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 36,9 %, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 22,4 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 26,1 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin .



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 36,9 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 22,4%.




Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi - 26,1 %.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 342,5 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,509 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 100,9 % ni tashkil qildi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,781 %) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash – 69,7 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 30,0 % tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishslash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	144,7	209,9	-65,2
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	118,9	125,8	-6,9
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:	55 068,0	51 692,0	3376
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	17 158,0	9 023,0	8135
Aroq – ming litr:	40,8	446,5	-405,7
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	5,6	14,7	-9,1

Tarkibida 15 % dan ko‘p spirit bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	368,0	838,2	-470,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	86 787,1	92 681,7	-5 894,6
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	23 401,9	14 825,8	8 576,1
Xo‘jalik sovuni – tonna:	4 806,59	4 107,0	699,59
Paxta tolasi – tonna:	86 721,9	70 391,3	16 330,6
Paxta chigit – tonna:	134 019,4	118 310,6	15 708,8
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	96 760,1	26 477,9	70 282,2
Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:	26 914,0	30 167,0	-3 253
Shakar – tonna:	267 797,8	109 874,6	157 923,2

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 65,2 mln. kVts. ga, issiqlik energiyasi 6,9 ming Gkal ga, aroq 405,7 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari, 9,1 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirit bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 470,2 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 5 894,6 tonnaga, tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar 3 253 ming kv.m.ga kamaygan.




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

2020 - yil yanvar-dekabr oylarida o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 44,8 % ni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-dekabr oylarida bu ko‘rsatkich 39,3 % ga, o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,7 % dan 5,6 % ga kamaygan bo‘lsa,

yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning 0,02 % dan 0,12 % ga, quiyi texnologiyali ishlab chiqarishning 43,8 % dan 51,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 16,5 mlrd. so'mlik (2020 - yil yanvar- dekabr oylarida 2,3 mlrd. so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 5 370,2 mlrd. so'mlik (4 312,3 mlrd. so'm), o'rta-quiyi texnologiyali tarmoqda 760,9 mlrd. so'mlik (649,0 mlrd. so'm), quiyi texnologiyali tarmoqda 7 049,3 mlrd. so'mlik (4 216,5 mlrd. so'm) mahsulot ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-dekabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	13 648,5	117,2
Urganch shahri	2 149,7	109,3
Xiva shahri	150,6	103,1

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-dekabr mlrd. so 'm	Fizik hajm indeksi, % da
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	460,2	111,5
Gurlan tumani	471,5	107,7
Qo'shko'pir tumani	361,6	136,0
Urganch tumani	769,1	119,5
Hazorasp tumani	350,4	113,6
Tuproqqa'l'a tumani*	6 947,6	109,8
Xonqa tumani	630,5	105,6
Xiva tumani	242,4	96,4
Shovot tumani	357,0	108,3
Yangiariq tumani	288,9	96,1
Yangibozor tumani	469,0	117,3

Yuqoridaagi jadvalning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a tumani, Urganch shahri, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-dekabrga nisbatan sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli o'sishi Qo'shko'pir tumanida 136,0 %, Urganch tumanida 119,5 %, Yangibozor tumanida 117,3 %, Hazorasp tumanida 113,6 %, Bog'ot tumanida 111,5 %, Tuproqqa'l'a tumanida 109,8 %, Urganch shahrida 109,3 %, Shovot tumanida 108,3 %, Gurlan tumanida 107,7 %, Xonqa tumanida 105,6 %, Xiva shahrida 103,1 % darajada kuzatildi.



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 50,9 %), Urganch shahri (15,8 %), Urganch (5,6 %), Xonqa (4,6 %), Gurlan (3,5 %), Yangibozor (3,4 %), Bog‘ot (3,4 %), Qo‘shko‘pir (2,6 %), Shovot (2,6 %) hamda Hazorasp (2,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangiariq (2,1 %) va Xiva tumani (1,8 %), Xiva shahri (1,1 %) ga to‘g‘ri kelmoqda




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish (mlrd. so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	13648,5	9615,9
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2,4	1,0
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	2,4	1,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	13196,9	9180,2
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	3264,9	1508,7
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	295,6	316,7
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	3053,0	2056,2
Kiyim ishlab chiqarish	98,4	63,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	9,1	6,0
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materillallari, ishlab chiqarish	32,3	25,6
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	124,0	62,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,4	1,4


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,9
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	28,8	49,4
Asosiy farmasevtika	16,2	1,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	103,3	86,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	345,2	270,5
Metallurgiya sanoati	36,2	68,4
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	181,4	206,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	28,5	24,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	279,5	130,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	5033,3	4102,6
Mebel ishlab chiqarish	48,4	36,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	122,2	139,3
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	94,4	15,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	342,5	348,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	106,7	86,4




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 8 563,6 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr



2020- yil yanvar-dekabr



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 3 307,4 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 5,0 mlrd. so'mni va 5 251,2 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 145,9 %, 26,3 % va 96,2 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,7 % ni (2020 - yil yanvar-dekabr oylarida 80,6 %) tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda yengil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 576,8 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 3 788,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 885,9 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 – yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	8 563,6	100,0	110,6
Urganch shahri	1 054,6	12,3	108,2
Xiva shahri	122,7	1,4	117,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	234,2	2,7	133,3
Gurlan tumani	188,3	2,2	101,4
Qo'shko'pir tumani	105,8	1,2	56,0
Urganch tumani	311,7	3,6	128,5
Hazorasp tumani	98,9	1,2	100,2
Tuproqqa'l'a tumani	5 653,8	66,0	114,0
Xonqa tumani	338,7	4,0	100,6
Xiva tumani	91,4	1,1	69,7
Shovot tumani	146,2	1,7	101,2
Yangiariq tumani	109,0	1,3	102,0
Yangibozor tumani	108,3	1,3	110,4

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib – 66,0 % ni, Urganch shahrinda 12,3 % ni, Xonqa tumanida 4,0 % ni, Urganch tumanida 3,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bog'ot tumanida

(133,3 %), Urganch tumanida (128,5 %), Xiva shahrida (117,0 %) va Tuproqqa'l'a tumanida (114,0 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3 307,4	100,0	145,9
Urganch shahri	563,5	17,0	92,8
Xiva shahri	33,8	1,0	71,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	147,1	4,4	118,6
Gurlan tumani	117,9	3,6	109,7
Qo'shko'pir tumani	44,2	1,3	76,0
Urganch tumani	179,6	5,4	111,6
Hazorasp tumani	48,6	1,5	100,8
Tuproqqa'l'a tumani	1 722,2	52,1	282,0
Xonqa tumani	209,7	6,3	94,0
Xiva tumani	39,0	1,2	53,9
Shovot tumani	88,8	2,7	97,1
Yangiariq tumani	42,0	1,3	79,1
Yangibozor tumani	71,0	2,2	113,6

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib – 52,1 %, Urganch shahrida 17,0 % , shuningdek, Xonqa tumanida 6,3 %, Urganch


tumanida 5,4 %, Bog'ot tumanida 4,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumanida (282 %) kuzatildi.

	Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati <i>(2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida)</i>
--	--

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-dekabr nisbatan, % da
Xorazm viloyati	5 251,2	100,0	96,2
Urganch shahri	486,0	9,2	139,6
Xiva shahri	89,0	1,7	155,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	87,1	1,7	168,4
Gurlan tumani	70,3	1,3	89,9
Qo'shko'pir tumani	61,6	1,2	47,0
Urganch tumani	132,1	2,5	161,9
Hazorasp tumani	50,3	1,0	99,6
Tuproqqa'l'a tumani	3 931,6	74,9	90,4
Xonqa tumani	129,0	2,4	113,4
Xiva tumani	52,4	1,0	89,3
Shovot tumani	57,4	1,1	108,4
Yangiariq tumani	67,1	1,3	124,5
Yangibozor tumani	37,3	0,7	104,8

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (74,9 %), shuningdek, Urganch shahrida 9,2 % ni, Urganch tumanida 2,5 % ni va Xonqa tumanida 2,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (96,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Bog'ot tumani (168,4 %), Urganch tumani (161,9 %), Xiva shahri (155,2 %), Urganch shahri (139,6 %), Yangiariq tumani (124,5 %), Xonqa tumani (113,4 %), Shovot tumani (108,4 %) va Yangibozor tumani (104,8 %) tashkil qildi.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan Bog'ot tumanida (133,3 %), Urganch tumanida (128,5 %), Xiva shahrida (117,0 %), Tuproqqa'l'a tumanida (114,0 %), Yangibozor tumanida (110,4 %), Urganch shahrida (108,2 %), Yangiariq tumanida (102,0 %), Gurlan tumanida (101,4 %), Shovot tumanida (101,2 %), Xonqa tumanida (100,6 %) va Hazorasp tumanida (100,2 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Qo'shko'pir tumanida (56,0 %) va Xiva tumanida (69,7 %) kuzatildi.



**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021 - yil yanvar- dekabr oylarida, ming so‘m)**

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	7 150,5	115,4	4 486,5	108,9
Urganch sh.	14 740,7	108,2	7 231,1	107,1
Xiva sh.	1 597,1	101,4	1 301,3	115,1
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	2 738,9	109,6	1 393,7	131,0
Gurlan	3 127,7	106,2	1 248,8	99,9
Qo‘siko‘pir	2 067,7	134,3	605,0	55,2
Urganch	3 781,7	117,1	1 532,7	126,0
Hazorasp	1 771,6	112,3	499,8	99,1
Tuproqqał'a	125 215,9	106,9	101 898,6	111,0
Xonqa	3 319,1	103,9	1 782,8	98,9
Xiva	1 632,1	94,8	615,4	68,6
Shovot	2 063,2	106,8	845,0	99,7
Yangiariq	2 447,3	94,8	923,7	100,5
Yangibozor	5 285,0	115,7	1 221,1	108,9

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, 2021- yilning yanvar- dekabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 7 150,5 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,4 %

darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi 2020- yil yanvar- dekabr oylaridagi ko‘rsatkichlar bilan solishtirib qilingan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Urganch shahrida 13 253,7 ming so‘mdan 14 740,7 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 1 883,0 ming so‘mdan 2 738,9 ming so‘mga, Gurlan tumanida 2 994,9 ming so‘mdan 3 127,7 ming so‘mga, Qo‘shko‘pir tumanida 1 475,5 ming so‘mdan 2 067,7 ming so‘mga, Urganch tumanida 1 677,4 ming so‘mdan 3 781,7 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 1 468,2 ming so‘mdan 1 771,6 ming so‘mga, Tuproqqa‘l’ a tumanida 79 740,9 ming so‘mdan 125 215,9 ming so‘mga, Xonqa tumanida 2 696,5 ming so‘mdan 3 319,1 ming so‘mga, Xiva tumanida 1 720,4 ming so‘mdan 1 632,1 ming so‘mga, Shovot tumanida 1 801,1 ming so‘mdan 2 063,2 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 2 371,2 ming so‘mdan 2 447,3 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 3 114,6 ming so‘mdan 5 285,0 ming so‘mga oshganligi kuzatildi.

Sanoati rivojlangan Tuproqqa‘l’ a tumanida (125 215,9 ming so‘m), Urganch shahrida (14 740,7 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (7 150,5 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.


Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 4 486,5 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-dekabr oylarida Urganch shahrida 6 749,5 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-dekabr oylarida 7 231,1 ming so‘mga, Xiva shahrida 1 130,4 ming so‘mdan 1 301,3 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 1 063,9 ming so‘mdan 1 393,7 ming so‘mga, Urganch tumanida 1 216,3 ming so‘mdan 1 532,7 ming so‘mga, Tuproqqa‘l’ a tumanida 91 793,9 ming so‘mdan 101 898,6 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 919,0 ming so‘mdan 923,7 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 1 121,2 ming so‘mdan 1 221,1 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.

Sanoati rivojlangan Tuproqqa‘l’ a tumanida (101 898,6 ming so‘m), Urganch shahrida (7 231,1 ming so‘m) aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (4 486,5 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar- dekabr oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 003,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqa'l'a tumani (3,6 %), Urganch shahri (24,8 %) va Qo‘siko‘pir tumanida (27,7 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Yangibozor tumani (51,8 %), Urganch tumani (49,6 %), Bog'ot tumani (48,4 %), Gurlan tumani (34,2 %), Xonqa tumani (33,6 %), Shovot tumani (32,1 %), Hazorasp tumani (30,3 %), Qo‘siko‘pir tumani (27,7 %), Urganch shahri (24,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 847,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishda tutgan ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2022- yil 1-yanvar holatiga koʻra)

Viloyatda 2022- yilning 1- yanvar holatiga, 4 298 ta sanoat korxonasi faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 827 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 19,2 %) Urganch shahriga, 513 tasi (11,9 %) Urganch tumaniga, 377 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga, 374 tasi (8,7 %) Qoʼshkoʼpir tumaniga toʻgʻri kelmoqda.



2021 - yil yanvar – dekabr oylarida viloyatda 1 090 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi. Ulardan 144 tasi Urganch shahrida, 118 tasi Hazorasp tumanida, 131 tasi Qoʼshkoʼpir tumanida, 119 tasi Urganch tumanida, 103 tasi Bogʼot tumanida, 95 tasi Xonqa tumanida, 65 tasi Shovot tumanida, 64 tasi Xiva shahrida tashkil etilgan.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va
materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish
dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi boʻyicha 98 ta loyiha mavjud boʻlib, ular tomonidan 2021-yilning yanvar - dekabr oylarida 459,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 4 348,4 ming AQSh dollarlik mahsulot eksport qilinib, 1323 ta yangi ish oʻrinlari yaratilgan.

Shahar va tumanlar kesimidagi tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, dastur boʻyicha Urganch shahrida 22 ta loyihada 81,572 mlrd. soʻmlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 1,159 mlrd. soʻmlik, Gurlan tumanida 5 ta loyihada 74,051 mlrd. soʻmlik, Urganch tumanida 11 ta loyihada 37,088 mlrd. soʻmlik, Tuproqqa'l'a tumanida 16 ta loyihada 185,663 mlrd. soʻmlik, Xonqa tumanida 5 ta loyihada 1,715 mlrd. soʻmlik, Xiva tumanida 5 ta loyihada 3,944 mlrd. soʻmlik, Shovot tumanida 6 ta loyihada 52,220 mlrd. soʻmlik, Yangiariq tumanida 3 ta loyihada 12,888 mlrd. soʻmlik, Yangibozor tumanida 5 ta loyihada 1,788 mlrd. soʻmlik, Qoʼshkoʼpir tumanida 2 ta loyihada 5,476 mlrd. soʻmlik, Hazorasp tumanida 12 ta loyihada 0,309 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



	2021 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	98	55
Korxonalar soni, birlik	78	44
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so‘m	459,8	189,9

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo‘limi
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99